

Musiqqa maktabi – san’at olamiga yo’l



Har bir inson turli qobiliyatlar bilan tug’iladi. Ba’zilar rasm chizishni yoqtirsa, boshqalari raqsqa tushishni, yana boshqalari esa kuylashni yoki cholg’u chalishni xush ko’radilar. Bolalar o’z iste’dodlarini rivojlantirishlari uchun **musiqqa**, **san’at**, **xoreografiya**, **sport** va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablarda shug’ullanishlari mumkin.

Musiqqa maktablari bir necha asrlar muqaddam paydo bo’lgan. Ular bolalarning musiqqa savodini chiqarish, cholg’u chalish va kuylashni o’rgatish, shuningdek, musiqiy an’analarni saqlash va bo’lg’usi musiqachilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan.

Bugungi kunda musiqqa maktablari dunyoning ko’plab mamlakatlarida, jumladan O’zbekistonda ham faoliyat yuritadi. Bu yerda bolalar musiqqa oid bilimlar olish bilan birga mehnatsevarlik, mas’uliyat, musiqani tinglash va uni tushunishni o’rganadilar.



Abu Nasr al-Forobiy

X asrdayoq buyuk alloma **Abu Nasr al-Forobiy** musiqani fan sifatida o’rgangan. U o’zining **“Katta musiqqa kitobi”** asarida tovushning qanday paydo bo’lishi, musiqaning inson kayfiyatiga ta’siri va uning tarbiya berish jarayonidagi roli haqida tushuntirgan. Al-Forobiy musiqqa insonning aqli va xotirasini rivojlantirishga hamda atrofdagi olamni yaxshiroq tushunishga yordam beradi deb hisoblagan.

Buyuk shoir **Alisher Navoiy** musiqani yuksak darajada qadrlagan va iste’dodli musiqachilarni qo’llab-quvvatlagan. U o’z asarlarida qo’shiqchilar, cholg’ular va san’atning qudrati haqida yozgan. Navoiy musiqqa insonni mehrlil va ma’nan boy qilishga hamda yaxshi didni tarbiyalashga yordam beradi deb hisoblagan.



Alisher Navoiy

Musiqqa maktablari bolalar **solfedjio** va **musiqqa adabiyotidan** bilim oladilar, **fortepiano**, **skripka**, **damli**, **zarbli** va **xalq cholg'ularini** **chalishni** o'rganadilar, **vokal va xorda kuylash** bilan shug'ullanadilar, **ansambllar va orkestrlarda** qatnashadilar.

Ko'pgina maktablarda **xoreografiya bo'limlari** ochilgan, u yerda bolalar mumtoz, xalq va zamonaviy raqslarni o'rganishlari mumkin. Raqs ritm hissi va artistlik mahoratini rivojlantiradi, chiroyli qad-qomatni shakllantiradi va harakatlar muvofiqligini ta'minlaydi.



Olimlar musiqqa bilan shug'ullanish xotira, diqqat va tasavvurni rivojlantirishga hamda maktab fanlarini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam berishini aniqlaganlar.



1. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun ota-onalar farzandlarining musiqqa yoki raqs bilan shug'ullanishini istashadi?
2. Musiqqa maktablari qanday maqsadda tashkil etilgan?
3. Musiqqa maktabida qaysi fanlar o'qitiladi?
4. Musiqqa bilan shug'ullanish qanday sifatlarni rivojlantiradi?
5. Nima uchun Al-Forobiy va Alisher Navoiy musiqaga katta e'tibor qaratishgan?



Har bir o'quv yili do'stlar va ustozlar bilan quvonchli uchrashuv hamda ajib hissiyotlar boshlanadi. Bu kunda ko'p maktablarda do'stlik, baxtli bolalik va maktab haqida qo'shiqlar yangraydi. Ular bayramona kayfiyat yaratib, oldinda qiziqarli kashfiyotlar kutayotganini eslatadi.

Bugun biz sevimli maskanimiz haqida kuylangan **“Maktabim”** qo'shig'i bilan tanishamiz.

Maktabim

*“Tantana” guruhi
tomonidan ijro etilgan*



5

- 1 Biz darsdan qochmaymiz, yo'q, yo'q, yo'q!
Uyga ham shoshmaymiz, yo'q, yo'q, yo'q!
Bu katta tanaffus, ha, ha, ha!
Yuringlar o'ynaymiz.
Ertalab yugura-yugura
Kelamiz maktab tomon.
Bu maskan judayam-judayam
Bo'lib qoldi qadrdon.
Alifbo o'rgatar bizlarni o'qishga,
Harflarni ulab, chiroyli yozishga,
Chiroyli yozishga.

Naqarot:

Maktabim, sen ikkinchi uyim, } 2 marta
Maktabim, senga atay kuyim.
Biz o'qib olim bo'lamiz,
Doim besh baholar olamiz.
Albatta!



- 2 Kundalik quvonar-quvonar,
Baholarim a'lo.
Albatta o'rgana-o'rgana,
Bir kun bo'lamiz dono.
Sevimli makonim,
Ilm o'chog'imsan.
O'sayotgan gullar
Chamani, bog'isan,
Eng go'zal chog'imsan.

Naqarot

- 3 Besh baholar olamiz,
Quvnoq, zukko bo'lamiz,
O'qib, dono bo'lamiz,
Albatta!
Sevimli makonim,
Ilm o'chog'imsan.
O'sayotgan gullar
Chamani, bog'isan,
Eng go'zal chog'imsan.

Naqarot

- "Maktabim" qo'shig'ini yod oling.
- Sinfdozlaringizdan qaysi biri musiqa maktabida shug'ullanishini so'rab biling. Undan keyingi darsda biror cholg'uda kichik asar chalib berishini yoki qo'shiq kuylab berishini iltimos qiling.

